

RAQAMLI BANK XIZMATLARIDA YUZAGA KELAYOTGAN MOLIYAVIY RISKLAR TAHLILI: TURLARI, SABABLARI VA MISOLLAR

Abdullayev Doston Zubaydullo o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki 1-toifali
mutaxassisi*

Anotatsiya: Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston bank sektorida raqamli bank xizmatlarining kengayishi jarayoni va u bilan bog'liq risklar tahlil qilinadi. So'nggi yillarda raqamli transformatsiya natijasida bank xizmatlari sifati va mijozlar tajribasi sezilarli darajada yaxshilangan bo'lsa-da, kiberxavfsizlik va operatsion risklar keskin oshgani kuzatilmoqda. Tadqiqotda raqamli bank xizmatlarida uchraydigan asosiy xavf turlari — kiberhujumlar, firibgarliklar, texnik nosozliklar, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, bank tizimi, kiberxavfsizlik, operatsion risklar, moliyaviy firibgarlik, texnik nosozliklar, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, elektron to'lovlar, fintech, bank infratuzilmasi, xavflarni boshqarish, O'zbekiston bank sektori.

Abstract: This research analyzes the process of expanding digital banking services in the banking sector of Uzbekistan and the risks associated with it. In recent years, as a result of digital transformation, the quality of banking services and customer experience has significantly improved; however, cybersecurity and operational risks have sharply increased. The study highlights the main types of risks encountered in digital banking services, including cyberattacks, fraud, technical malfunctions, and issues related to the security of personal data.

Keywords: Digital banking services, digital transformation, banking system, cybersecurity, operational risks, financial fraud, technical failures, personal data security, electronic payments, fintech, banking infrastructure, risk management, Uzbekistan banking sector.

So'nggi yillarda raqamli bank xizmatlarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bank tizimida xizmatlar sifati oshirdi, operatsion jarayonlarning samaradorligini ta'minladi hamda mijozlar tajribasini sezilarli darajada yaxshiladi. Shu bilan birga, digital transformatsiya banklar uchun yangi turdagi moliyaviy va axborot xavflarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, axborot xavfsizligining buzilishi, texnik nosozliklar, firibgarlik holatlari va shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi kabi omillar bugungi kunda bank tizimi uchun dolzarb tahdidlardan hisoblanadi.


Raqamli bank xizmatlariga xos risklarning ikkita keng tarqalgan asosiy turlarini ajratish mumkin:



1. Kiberxavfsizlik riski: Raqamli texnologiyalarning keng qo'llanishi bank infratuzilmasini kiberhujumlarga nisbatan zaiflashtiradi. Bunga mijoz ma'lumotlarining o'g'irlanishi, phishing hujumlarining ko'payishi, internet resurslar faoliyatini izdan chiqaruvchi DDoS hujumlar kiradi. Ushbu holatlar bankning moliyaviy zarar ko'rishiga, obro'siga putur yetishiga va mijozlar ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, 2023-yilda O'zbekiston fuqarolari plastik kartalaridan firibgarlik yo'li bilan 1 milliard so'm mablag' o'zlashtirilgan.

2. Operatsion risk: Texnik xatoliklar, dasturiy nosozliklar yoki serverlarning ishdan chiqishi natijasida bank xizmatlarining vaqtincha to'xtashi ehtimoli mavjud. Bu esa mijozlar noroziligiga, to'lovlarning kechikishiga hamda raqobatchi banklar foydasiga mijozlar oqimining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, 2022-yil yanvar oyida Markaziy Osiyo mintaqasida kuzatilgan keng ko'lamli elektr ta'minoti uzilishidan so'ng internet tezligi 37% gacha pasaygan. Natijada internet-banking, mobil ilovalar, bankomat va terminallarning ishlashi vaqtincha to'xtagan, bu esa banklar uchun qo'shimcha operatsion xarajatlar va mijozlar noqulayligiga sabab bo'lgan. Internet banking va mobil ilovalar ishlamay qolgan, mijozlarga elektron xizmatlar ko'rsatilishi to'xtab qolgan; Bankomatlar va terminallarning ishlamasligi mijozlarga naqd pul olish imkoniyatini cheklab qo'ygan;

Ushbu holat natijasida banklar tomonidan kompensatsiya xarajatlari ortgan hamda obyektiv noqulayliklar yuzaga kelgan; Bundan tashqari firibgarlar tomonidan O'zbekiston fuqarolari plastik kartalaridan 2023-yilning o'zida 1 milliard so'm miqdoridagi pullar o'zlashtirilgan.



1-rasm. O'zbekistonda 2024-yilda kuzatilgan online firibgarliklar hajmi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda qayd etilgan firibgarlik holatlarining katta qismi kiberhujumlar hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, ushbu hujumlar natijasida yetkazilgan zarar 396,45 milliard so'mni, to'lov kartalari bilan bog'liq firibgarliklar bo'yicha zarar esa 221,55 milliard so'mni tashkil etgan.





Shuningdek, boshqa shaxs nomiga noqonuniy online kredit rasmiylashtirish holatlari ham kuzatilib, natijada 12,66 milliard so‘m zarar qayd etilgan.

Umuman olganda, 2021–2024-yillar davomida O‘zbekiston hududida kiberfiribgarliklar oqibatida 1,9 trillion so‘m (taxminan 149 million dollar) zarar yetkazilgan. Mazkur ko‘rsatkich pandemiya davridan keyin keskin oshgan bo‘lib, aholi va banklar o‘rtasidagi raqamli tranzaksiyalar hajmining ko‘payishi bilan birga kiberjinoyatlar soni ham ortgan. Faqatgina 2024-yilda online kreditlarni soxtalashtirish bo‘yicha 463 ta holat qayd etilib, 15 milliard so‘m mablag‘ talon-taroj qilingan.

Pandemiya davridan oldingi davrga nisbatan kiberjinoyatlar soni 68 barobarga ko‘paygan, 2024-yilda esa banklar va ularning mijozlariga qarshi amalga oshirilgan kiberhujumlar soni 12 milliondan oshgan. Ushbu jarayonlar bank sektorida raqamli xavfsizlik strategiyalarini takomillashtirish, kiberrisklarni boshqarish tizimini mustahkamlash va mijozlar xavfsizlik savodxonligini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirgan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq xavf va tahdidlar ham sezilarli darajada kuchaygan. So‘nggi yillarda kiberhujumlar, online firibgarliklar va texnik nosozliklar natijasida banklar hamda mijozlar katta miqdorda moliyaviy zarar ko‘rmoqda. Ushbu holat raqamli sektorda xavfsizlik choralarini kuchaytirish, axborot texnologiyalarini barqaror ishlashini ta‘minlash, mijozlar kiberxavfsizlik savodxonligini oshirish va zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish zarurligini yaqqol namoyon etadi. Bank sohasida raqamlashtirish jarayoni davom etar ekan, xavflarni erta aniqlash, ularni boshqarish va oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish kelgusida tizim barqarorligi hamda mijozlar ishonchini saqlab qolishning muhim omili bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli firibgarliklar va kiberjinoyatlar statistik ma‘lumotlari (2021–2024 yillar). <https://stat.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy xizmatlar raqamlashtirilishi va bank tizimi barqarorligi bo‘yicha press-revizlar. <https://cbu.uz>
3. CERT-CBU — Markaziy bank huzuridagi kiberxavfsizlik markazi. Bank tizimidagi kiberhujumlar monitoringi va statistik ma‘lumotlar. <https://cbu.uz/uz/about/central-office/divisions/markaziy-bank-cert-cbu-kiberxavfsizlik-markazi>
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qarori. “Tijorat banklarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligi bo‘yicha minimal talablar to‘g‘risidagi nizom”, 01.08.2025 y., 19/1-son.
5. Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — Pearson, 2021.